

**Ahmad Muhammad Tursunning “Sohilsiz dengiz” asarida Imom al-Buxoriy obrazi
Salomova Guljamol**

Termiz davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada iste'dodli yozuvchi Ahmad Muhammad Tursun qalamiga mansub “Sohilsiz dengiz” asariga munosabat bildirilgan.Yozuvchining badiiy mahorati masalalariga e'tibor qaratilgan.

Tayanch so'zlar: Ahmad Muhammad Tursun ijodi,”Sohilsiz dengiz”romani, Imom al-Buxoriy obrazi, romanning bugungi kundagi ahamiyati

O'zining tarixiy va diniy mavzudagi asarlari ,shuningdek qisqa fikrlarda keng ma'no ifodalash mahorati bilan kitobxonlar qalbidan keng joy olgan ijodkorlardan biri Ahmad Muhammad Tursundir.Adibning hayoti va barakali ijodiy faoliyatiga nazar tashlasak,u 1949-yil Namangan shahrida tavallud topgan.Jurnalist sifatida matbuotda uzoq yillar faoliyat olib borgan.Bir qancha yillik ijodiy faoliyati davomida “Siz qanday yashamoqchisiz”, ”Sohilsiz dengiz”, ”Ulug’lar shunday yashashgan”, ”Ko’hna dunyo rivoyatlari”(“Hikmatlar kitobi”), ”Dunyonin tebratgan buyuklar” silsilasidagi “Avrangzeb Olamgir Boburiy hukmdor va ma’rifat homiyi”, ”Amir Temur.Buyuk sarkarda va sohibqiron” kabi bir qator kitoblari adabiyot ixlosmandlari tomonidan iliq kutib olindi.

Adibning ulug’ vatandoshimiz Ismoil Buxoriyning hayot yo'llari, hasbi hollari, ilmiy faoliyatları, tavalludidan tortib umrining so'nggi yillarigacha yorqin yoritilgan asari “Sohilsiz dengiz”romanidir.Yozuvchi romanning har bir bobiga Hofiz ibn Hajar Asqaloniy,Abu Abdulloh Hokim,Hoshim ibn Ismoil,Muslim ibn Hajjoj,Aliy ibn Hashram,Ahmad ibn Mansur Sheroziy Solim ibn Mujohid va boshqa bir qator hadis ilmi bilimdonlarining Buxoriy haqidagi fikrlarini isqibos sifatida keltiradi.Misol uchun, asarning dastlabki “Uchrashuv” bobida Hofiz ibn Hajar Asqaloniyning shunday fikrlari keltirilgan: ”Agar keyingilarda Imom Buxoriyni maqtash eshiklari ochiladigan bo’lsa,uning madhiga qog’ozlar yetmay,nafaslar toqat qila olmay qolur.Zero, u bamisolli sohili bo’lmagan dengiz erur”(1.3).Hadis ilmining yetuk bilimdonlari sanalgan bu kabi olimlarning fikrlari asar mazmunini ochishda muhim ahamiyat kasb etgan.Ismoil va Buxoriyning onasi – Fotimaning uchrashishi bilan boshlangan asar voqealari davomida Muhammadning dunyoga kelishi,onasining Buxoriya yoshligidan boshlab bergen go’zal tarbiyasi,madrasada talabalik yillarida minglab

hadis yodlashdagi ,hadislarning roviylarini to'liq aytib berishdagi o'tkir xotira-yi quvvati,"Sahih al-Buxoriy"ni yozishga sabab bo'lgan voqealar, Naysoburda Imom-Zuhliy,Buxoroda Mazhariddin ibn Javhariy ,fitnachi Hurays ibn Abul Baqro singari olimlarning nohaq tahqirlariga uchrashi,Xolid ibn Ahmad bilan ilm olishdagi tortishuvlari sababli umrining so'nggi daqiqalarini yurtidan uzoqda ,Samarqandda o'tkazish voqealari aks etgan.Romanda ilm talabi uchun to'rtta "kof" kerakligi alohida ta'kidlanadi:

- 1.Kissayi padar – ya'ni otaning kissasi,nafaqasi,
- 2.Kosayi modar – onaning kosasi taom va parvarishi,
- 3.Kashishi ustoz – ustozning e'tibori,

4.Ko'shishi shogird – shogirdning harakati (1.33)Shu hikmatga muvofiq asarda ota –onaning farzandiga bergen go'zal axloqi,bola tarbiyasining yuksak namunasini Buxoriyning padari buzrukrori va validasi timsolida ko'ramiz.Asardagi Buxoriyning otasi-Ismoil tilidan aytilgan fikrlari ahamiyatlidir:""-Men ko'p mol-dunyo to'plaganim yo'q,zero ilm ahli dunyo bilan kelisholmasligini yaxshi bilasiz.Ammo shuni komil ishonch bilan aytaman,to'plagan mol-dunyomda shubhali biror dirham harom tanga yo luqma yo'qdur.Alloh huzurida bu borada hisobga tortilishdan ko'nglim xotirjam.Dafnimga ko'p mablag' xarjlamaysizlar,qolganini ahlim nafaqasi ,farzandlar ta'limi uchun ishonchli kishiga topshirasiz"(1.21).Buxoriy zamondoshlarining ma'lumot berishicha ham Buxoriyning otasi o'z davrining katta tijoratchisi bo'lishiga qaramasdan, xonadoniga mehnatsiz topilgan bir dirham ham pul kiritmagan,chunki ota yaxshi bilardiki,farzandlarining kamoli,ilmning yuqishi asosan halqum pokligiga bog'liq.Bundan tashqari,Buxoriyning onasi –Fotimaning o'g'liga biror marta betahorat sut bermaganligi,biror onni Allohning zikrisiz,Qur'on tilovatisiz o'tkazmaganligi ,doim o'zini g'iybat shikoyatlardan,lag'v so'zlardan tiyanligi,farzandi bilan Haj safariga borganida "Ilmni Chinga borib bo'lsa-da izlagin" hikmatiga muvofiq farzandini ilm uchun Ollohga tavakkal qilib, yolgiz Hijozga tashlab kelishi - bularning bari butun millat onalariga o'rnak bo'la oladigan onaning cheksiz matonatidan nishon beradi.

Kishi iymonining yana bir belgisi,shubhasiz,ustoz hurmatiga ,duo-yi xayriga sazovor bo'lishdir.Buxoriy olgan ilmlarining barakali va insonlarga foydali bo'lishining yana bir sababi,uning yoshligidan ustozlariga cheksiz hurmatda bo'lganidadir.Asarda keltirilishicha,Muhammad ibn Ismoil har safar Buxoroga kelganida ustozlarining yoniga oshiqadi,dunyodan o'tgan ustozlarining haqlariga

duoda bo'lib, Allohdan rahmat-mahfirat ifat tilaydi. Har safar bozorga kirib ustozlari uchun non, holva, mayiz, turshak singari yeguliklar xarid qilganida taajjub bilan nega bunday qilishini so'raganlarga Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhuning shunday gaplarini keltirgan: "Menga bir dona harf o'rgatgan kishining quliman. Xohlasa sotsin, xohlasa qullikdan ozod qilsin, xohlasa qul qilib ishlatsin" (1.43).

Ilm – muqaddas, ilmni ulug'laganlarni ilm ham ulug'laydi. Buxoriy ham umrining so'nggi daqiqalarigacha ilmni muqaddas deb bildi, uni xor qilmadi. Hijriy 205-259-yillarda Buxoro noibi bo'lган Xolid ibn Ahmad Buxoriydan "Tarix" va "Jome" kitoblarini keltirib dars o'tsin deganda ulug' muhaddisning bergan javobi bunga yorqin misoldir. Buxoriy aytadiki: "Men ilmni odamlarning eshigiga olib bormayman. Ilm o'ganmoqchi bo'lsangiz, uyimga yoki masjidga keling. Agar so'zlarim yoqmasa, siz sultonsiz, mayli mening dars berishimni taqiqlab qo'ying. Toki qiyomatda ilmni yashirmaganim uchun Alloh taolo uzrimni qabul qilsin. Chunki Payg'ambar sallallohu alayhi vassallam "Kim ilmdan so'ralganda uni yashirsa, o'tdan bo'lган yungan bilan yunganlanadi ", deganlar. Talabalar ommasiga dars aytmay, maxsus kishilarga ta'lim berishning tog'dek gunohini yelkamga ortmayman" (1.225).

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bu asarda Ahmad Muhammad Tursun butun hayotini hadis to'plash, tahqiq va tadqiq qilish, ularni keyingi avlodlarga yetkazishga bag'ishlagan Imom Buxoriyning hasbi hollari, ilmiy faoliyatları va ilm yo'lidagi buyuk xizmatlari haqida hikoya qiladi. Hayotlari davomida 600 ming hadisni yod biliq, ularning ichidan ikki yuz ming sahihini ajratgan Buxoriyning buyuk ishlari bugungi kungacha butun dunyoda e'tirof etiladi, asarlari mutolaa qilinadi. Yozuvchining yutug'i ham ana shunday ulug' siymo obrazini badiiyat va tarixiylik nuqtayi nazaridan o'z asarida mahorat bilan yorita olganidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Muhammad Tursun. Sohilsiz dengiz. Roman.-Toshkent. Hilo nashr, 2020.
2. O'zbekiston Milliy axborot agentligi O'ZA Ilm-fan bo'limi. Elektron jurnal. 2022-yil avgust soni N_8(34). -Toshkent, 2022.
3. Yuz.uz sayti
4. Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. -Toshkent : "Noshir", 2019
5. Hofiz Ahmad ibn Hajar Asqaloniy. Fathul boriy lin shahri "Sahihi Buxoriy", Riyoz, hijriy 1379.
6. Xurshid Davron elektron kutubxonasi.